



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

№ 913-XII 02.09.1993 y.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI TO`G`RISIDA

Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o`zgartirishlar kiritilgan

O`zR 30.08.1997 y. 485-I-son Qonuni,
O`zR 25.12.1998 y. 729-I-son Qonuni,
O`zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni,
O`zR 31.12.2005 y. O`RQ-19-son Qonuni

I bob. Umumiy qoidalar (1-6-moddalar)

II bob. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosi (7-10-moddalar)

III bob. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi (11-15-moddalar)

IV bob. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining strukturasi va ular faoliyatining tashkiliy asoslari (16-20-moddalar)

V bob. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (21-23-moddalar)

VI bob. Xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning vakolatlari (24-25-moddalar)

VII. Xalq deputatlari kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari (26-29-moddalar)

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati

2-modda. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati boshlig`ini lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish

3-modda. O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi qonunlari

4-modda. Hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan o`zaro munosabatlari

5-modda. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O`zbekiston Respublikasi boshqa ma`muriy-hududiy tuzilmalari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o`zaro munosabatlari

6-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qiladigan hujjatlar

1-modda. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati
Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo`ysunadigan shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir. Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo`lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari o`rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta`minlaydi. (O`zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxiridagi qism)
Mahalliy hokimiyat vakillik organlari va hokimlar O`zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga ega bo`ladilar.

2-modda. Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati boshlig`ini lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish
Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tegishli viloyat, Toshkent shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman, shahar hokimi viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan tayinlanadi hamda tasdiqlanadi. Shahardagi tuman, tumanga bo`ysunuvchi shahar hokimi tegishli shahar, tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tegishli tuman, shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat hokimi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda shahar hokimini tuman (shaharlar



tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimiga bo`ysundirish va yagona boshqaruv organlari tuzish vakolatiga ega. Bu xususdagi qaror keyinchalik xalq deputatlari viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. (O`zR 30.08.1997 y. 485-I-son Qonuni taxiridagi qism)

Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarning vakolat muddati - besh yil. 3-modda. O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi qonunlari Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu qonun va O`zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog`iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu qonun va Qoraqalpog`iston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadi.

4-modda. Hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning o`zini o`zi boshqarish organlari bilan o`zaro munosabatlari Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o`zini o`zi boshqarishni rivojlantirishga ko`maklashadilar, o`zini o`zi boshqarish organlarining faoliyatini yo`naltirib turadilar.

5-modda. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O`zbekiston Respublikasi boshqa ma`muriy-hududiy tuzilmalari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o`zaro munosabatlari Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o`tkazish, qo`shimcha korxonalar, xo`jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruv sohalarida faoliyatlarni uyg`unlashtirish maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasining, O`zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o`zaro munosabatlar o`rnatishga haqlidirlar.

6-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qiladigan hujjatlar Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o`zga tartib belgilanmagan bo`lsa. Xalq deputatlari Kengashi va hokim o`z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

II BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI FAOLIYATINING IQTISODIY ASOSI

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi shakllari
8-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki
9-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki ob`ektlarini boshqarish
10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining er munosabatlarini tartibga solishi

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma`muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo`lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O`zbekiston Respublikasi mulkida bo`lgan davlat mulki ob`ektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob`ektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Viloyat, tuman, shahar mulkini, shuningdek viloyat, tuman va shaharga xo`jalik yuritish uchun berilgan davlat mulki ob`ektlarini boshqarish tartibi ushbu qonun, O`zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan yo`lga solinadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o`zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O`zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo`jalik faoliyatini erkin yuritishga to`siqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar.

8-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o`ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o`zi sotib olgan ob`ektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to`liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, byudjet mablag`lari, byudjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag`lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo`lgan muhandislik infrastrukturasi ob`ektlari va boshqa ob`ektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta`limi, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag`i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog`ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo`lishi mumkin.

9-modda. Viloyat, tuman, shahar mulki ob`ektlarini boshqarish Xalq deputatlari Kengashi, hokim viloyat, tuman, shahar mulki ob`ektlarini O`zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan doirada boshqaradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi hamda viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli viloyat, tuman, shahar mulkida bo`lgan ob`ektlarni O`zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda va doirada vaqtincha yoki doimiy egalik qilish va foydalanish uchun berishga haqlidir.



10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining er munosabatlarini tartibga solishi Viloyat, tuman, shahar hokimi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo`jaliklari va fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga er berishga, bu sub`ektlarning erga egalik qilish va erdan foydalanish huquqini to`xtatib qo`yishga, shuningdek ularni olib qo`yishga haqli bo`lib, qabul qilingan bu xususdagi qarorlar xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashi, hokim O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq er munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qiladilar.

III BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI FAOLIYATINING MOLIVAVIY ASOSI

11-modda. Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari
12-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari
13-modda. Viloyat, tuman, shahar byudjetining daromadlari va sarf-xarajatlari
14-modda. Mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari
15-modda. Viloyat, Toshkent shahar valyuta fondlari

11-modda. Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini byudjet mablag`lari, byudjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) byudjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi. Viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan birgalikdagi dasturlarni, shu jumladan hududlararo dasturlarni pul bilan ta`minlash uchun boshqa viloyatlar, tumanlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning moliya resurslari bilan shartnoma asosida birlashtirilishi mumkin.

12-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi viloyat, tuman, shahar byudjeti va uning ijrosiga doir hisobotlarni tasdiqlaydi.

Viloyat, tuman, shahar byudjeti loyihalarini tayyorlash, uning ijrosini hokim amalga oshiradi. Byudjet loyihasi hokim tomonidan daromadlar manbai va xarajatlar yo`nalishlari ko`rsatilgan holda taqdim etiladi. Ijroiya organlarini pul bilan ta`minlash byudjetda nazarda tutilgan miqdorlarda amalga oshiriladi. Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari tegishincha tumanga bo`ysunuvchi shahar hamda shahardagi tuman byudjetini va uning ijrosiga doir hisobotlarni ham tasdiqlaydilar.

13-modda. Viloyat, tuman, shahar byudjetining daromadlari va sarf-xarajatlari Viloyat, tuman, shahar byudjeti daromadlariga:

- O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig`imlar;
- viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulkni ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar;
- qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko`rsatilgan daromadlarining muayyan qismi;

- O`zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar kiritiladi.

14-modda. Mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlari Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi:

- fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat`i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan;

- O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan;
- byudjetdan tashqari o`zga mablag`lardan tarkib topadigan byudjetdan tashqari fondlar hosil qilishi mumkin. Byudjetdan tashqari fondlarning mablag`lari bankdagi maxsus schyotlarda turadi, ularni olib qo`yish mumkin emas, ular tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga binoan sarflanadi.

15-modda. Viloyat, Toshkent shahar valyuta fondlari Xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi O`zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq viloyat, shahar valyuta fondi tashkil etish va ulardan xalq deputatlari Kengashining qarorlariga binoan foydalanishga haqlidir.

IV BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING STRUKTURASI VA ULAR FAOLIYATINING TASHKILIY ASOSLARI

16-modda. Xalq deputatlari Kengashini saylash
17-modda. Xalq deputatlari Kengashining sessiyalari
18-modda. Xalq deputatlari Kengashining Ish tartibi
19-modda. Xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalari
20-modda. Xalq deputatlari Kengashi faoliyatini tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan ta`minlash

16-modda. Xalq deputatlari Kengashini saylash Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi O`zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar aholisi tomonidan saylanadigan xalq deputatlaridan iborat bo`ladi.



17-modda. Xalq deputatlari Kengashining sessiyalari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalari tegishli hokim, hokim yo`qligida esa uning o`rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya, shuningdek xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga binoan ham chaqirilishi mumkin. Kengash sessiyasini chaqirish to`g`risidagi qarordan deputatlar sessiya ochilishidan kamida etti kun oldin xabardor qilinadi.

Yangi saylangan xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi va u keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarida hokim, u yo`qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokimning topshirig`iga binoan mazkur Kengashning deputatlaridan biri raislik qiladi.

Xalq deputatlari Kengashining har bir sessiyasini o`tkazish davrida deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi.

Xalq deputatlari Kengashining sessiyasi, bosharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyasida muhokama qilinayotgan masalalar bo`yicha ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali, deputatlar umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

18-modda. Xalq deputatlari Kengashining Ish tartibi

Xalq deputatlari Kengashi sessiyalarini chaqirish va o`tkazish, sessiya muhokamasiga masalalar kiritish va ularni qarab chiqish, xalq deputatlari Kengashi organlarini tashkil etish va saylash, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni tinglash, deputatlar so`rovlarini, qaror loyihalarini qarab chiqish, ovoz berish, qarorlarni e`lon qilish, sessiyaga taklif etiladigan shaxslar sonini aniqlash tartibi, shuningdek deputatlarning mas`uliyati va sessiya ishini tashkil etishga doir boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining Ish tartibiga muvofiq belgilanadi.

19-modda. Xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalari

Sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini va O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini ro`yobga chiqarish uchun ko`maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o`rnatish maqsadida xalq deputatlari Kengashi o`z vakolati muddatiga doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi. Komissiyalar to`g`risidagi Nizom tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

20-modda. Xalq deputatlari Kengashi faoliyatini tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan ta`minlash

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko`rsatish tegishli hokimlik apparati tomonidan ta`minlanadi.

V BOB. MAHALLIY IJROIYA HOKIMIYATI ORGANLARI

21-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyatning rahbariyati

22-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining struktura va shtatlari

23-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari struktura bo`linmalarining rahbarlarini lavozimgatayinlash va lavozimdan ozod etish

21-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyatning rahbariyati
Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o`rinbosar va o`rinbosarlarga ega bo`ladi. O`zR 25.12.1998 y. 729-I-son Qonuniga muvofiq ikkinchi qism chiqarib tashlangan Hokim o`rinbosarlari qoida tariqasida tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatlari orasidan tayinlanadilar va tasdiqlanadilar.

Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o`rinbosari hamda o`rinbosarlari hokim tomonidan O`zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig`iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o`rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig`iga kiritiladi. Shahardagi tuman, tumanga bo`ysunuvchi shahar hokimining o`rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Hokimning o`rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo`qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo`lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o`rinbosar yoki hokimning topshirig`iga binoan uning o`rinbosarlaridan biri bajaradi. Hokim, uning o`rinbosarlari, hokimlikning boshqa xodimlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari boshqa haq to`lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

22-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining struktura va shtatlari
Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo`linmalar va boshqa bo`linmalardan iborat bo`lib, ularning strukturasini, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasini va shtatlari hokim tomonidan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o`zgartiriladi.

Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlarining strukturasini va shtatlari hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o`zgartiriladi.



Viloyat, tuman, shahar hokimliklari apparatining stukturasi va shtatlari viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o`zgartiriladi. Viloyat va Toshkent shahar hokimligi apparatining namunaviy stukturasi va shtatlari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy stukturasi va shtatlari esa yuqori turuvchi hokim tomonidan belgilab qo`yiladi. Qoraqalpog`iston Respublikasida tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy stukturasi va shtatlari Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo`yiladi. 23-modda. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari struktura bo`linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish Basharti, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o`zga tartibi belgilanmagan bo`lsa, ijroiya hokimiyati struktura bo`linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokimning taqdimiga binoan - xalq deputatlari Kengashi tomonidan sessiyalar oralig`idagi davrda esa - hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar, bu xususda qabul qilingan qaror xalq deputatlari Kengashining tasdig`iga kiritiladi. Basharti, qonunlarda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning o`zga tartibi belgilanmagan bo`lsa, shahardagi tuman yoki tumanga bo`ysunadigan shahar ijroiya hokimiyati struktura bo`linmalarining rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

VI BOB. XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI VA HOKIMLARNING VAKOLATLARI

24-modda. Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari

25-modda. Hokimning vakolatlari

24-modda. Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari
Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolatlariga: hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo`ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash; amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliqlar, yig`imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig`imlar va to`lovlar bo`yicha imtiyozlar berish; hokimni va uning o`rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o`rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini tinglash; ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash; xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o`zgartishlar va qo`shimchalar kiritish; xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o`zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash; qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e`tirof etish va muddatidan oldin to`xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish; ijroiya hokimiyati bo`limlari, boshqarmalari, boshqa strukturaviy bo`linmalarining hisobotlarini tinglash; xalq deputatlarining so`rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish; hokimning va quyi Kengashning O`zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish; hokimning taqdimiga binoan hokimlik stukturasi, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o`z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O`zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

25-modda. Hokimning vakolatlari
Viloyat, tuman va shahar hokimi: qonunlarning hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi; (O`zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxiridagi xat boshi), (Oldingi taxiriga qarang) jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta`minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog`liq chora-tadbirlar ko`radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi; viloyat, tuman va shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo`nalishlarini, viloyat, tuman, shahar byudjetining asosiy ko`rsatkichlarini va ularning ijrosiga doir hisobotlarni xalq deputatlari Kengashining tasdig`iga taqdim etadi; o`z o`rinbosarlari va ijroiya hokimiyati struktura bo`linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to`g`risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashi tasdig`iga taqdim etadi; hokimlik devoni bo`linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi; quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, basharti ular O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga va O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga, shuningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlariga zid bo`lsa, bekor qiladi va xalq deputatlari Kengashiga quyi turuvchi xalq deputatlari Kengashlarining hujjatlarini bekor qilish to`g`risida taqdimnoma kiritadi; (O`zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxiridagi xat boshi) rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati struktura bo`linmalarining ishini nazorat qiladi;



xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to`g`risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi; davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi; respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko`radi; aholini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi. Uy-joy mulkdorlari va undan foydalanuvchilar kommunal xizmat, uy-joylardan foydalanish va saqlash xarajatlarini to`lashga doir talablarni qo`pol ravishda buzgan hollarda tumanlarning, shaharlarning (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning) hokimlari kommunal xizmat, uy-joylardan foydalanish va saqlash xarajatlari to`lovi bo`yicha qarzlarni undirish to`g`risida kommunal xizmat ko`rsatuv chilar yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlarining taqdimnomasiga muvofiq da`volar bilan sudga murojaat qiladi; (O`zR 31.12.2005 y. O`RQ-19-son Qonuni taxiridagi qism) O`zR 31.12.2005 y. O`RQ-19-son Qonuniga muvofiq ikkinchi qism uchinchi qism deb hisoblansin Hokim rejalashtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo`jaligi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo`l xo`jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko`rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta`minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o`z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

VII BOB. XALQ DEPUTATLARI KENGASHI VA HOKIMNING FAOLIYATIDA QONUNIYLIKNING KAFOLATLARI

26-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish
27-modda. Yuqori turuvchi hokimiyat organlari qarorlarining quyi organlar uchun majburiyligi
28-modda. Hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan sudga shikoyat qilish
29-modda. Hokimning prokuror protest bildirgan qarorlari qayta ko`rib chiqilishi majburiyligi

26-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim faoliyatining qonuniyligini nazorat qilish
Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlar O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi. (O`zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxiridagi qism)

Hokimlarning O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Hukumat hujjatlariga, shuningdek O`zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to`xtatiladi va bekor qilinadi.

27-modda. Yuqori turuvchi hokimiyat organlari qarorlarining quyi organlar uchun majburiyligi
Yuqori turuvchi davlat hokimiyati organlari o`z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar quyi organlarning ijrosi uchun majburiydir.

28-modda. Hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan sudga shikoyat qilish
Hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

29-modda. Hokimning prokuror protest bildirgan qarorlari qayta ko`rib chiqilishi majburiyligi
Hokimning O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlariga zid, prokuror protest bildirgan qarorlari shu hokimning o`zi tomonidan yoki yuqori turuvchi hokim yoki O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, zaruratiga qarab esa O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qayta ko`rib chiqiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov